

**Avstriya Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida  
2000-yilning 14-iyun kuni Toshkent shahrida imzolangan ikki yoqlama  
soliqqa tortishning oldini olish hamda daromad va mol-mulk soliqlarini  
to‘lashdan bosh tortishni bartaraf qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaga  
o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida  
Avstriya Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida  
BAYONNOMA VA  
QO‘SHIMCHA BAYONNOMA**

Avstriya Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi,  
2000-yil 14-iyun kuni Toshkent shahrida imzolangan Avstriya Respublikasi  
va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini  
olish hamda daromad va mol-mulk soliqlarini to‘lashdan bosh tortishni bartaraf  
qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaga (keyingi o‘rinlarda “Konvensiya” deb ataluvchi)  
o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Bayonnoma va Qo‘shimcha  
bayonnomani tuzish istagida,  
quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

**1-modda**

Konvensiyaning amaldagi muqaddimasi quyidagi muqaddima bilan  
almashtirilsin:

*“Avstriya Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi,  
O‘zlarining iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish va soliq masalalari  
bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish istagida,*

*Soliq to‘lashdan bosh tortish va bo‘yin tovlash orqali soliqqa tortilmaslik  
va to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq miqdorini (shu jumladan, uchinchi davlatlar  
rezidentlarining bilvosita foydasi uchun mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan  
imtiyozlarga ega bo‘lishga qaratilgan “treaty-shopping” kelishuvlari orqali)  
kamaytirish holatlariga yo‘l qo‘ymagan holatda ikki yoqlama soliqqa tortishning  
oldini olish hamda daromad va mol-mulk soliqlarini to‘lashdan bosh tortishni  
bartaraf qilish to‘g‘risidagi Konvensiyani tuzish niyatini bildirib,  
quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:”.*

## **2-modda**

Konvensiyaning 4-moddasi 3-bandi olib tashlansin va quyidagi band bilan almashtirilsin:

*“(3) Basharti 1-band qoidalariga muvofiq, jismoniy shaxs bo‘lmagan shaxs har ikkala Ahdlashuvchi Davlatlarning rezidenti bo‘lsa, ushbu shaxs faqatgina amaldagi boshqaruv joyi joylashgan Davlatning rezidenti hisoblanadi. Ikkilanish yuzaga kelgan vaziyatlarda, Ahdlashuvchi Davlatlarning vakolatli organlari tomonidan o‘zaro kelishuv asosida shaxsning amaldagi boshqaruv joyi joylashgan Davlat aniqlanadi va ushbu jarayonni amalga oshirishda barcha aloqador omillar inobatga olinadi. Bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, Konvensiyada ko‘rsatib o‘tilgan soliq imtiyozlari va soliqdan ozod etish ushbu shaxsga nisbatan tadbiq etilmaydi; Ahdlashuvchi Davlatlarning vakolatli organlari tomonidan o‘zaro kelishuvga erishilgan hollar bundan mustasno.”.*

## **3-modda**

Konvensiyaning 10-moddasi 3-bandi olib tashlansin va quyidagi band bilan almashtirilsin:

*“(3) “Dividendlar” atamasi, ushbu moddada qo‘llanilganda aksiyalardan, aksiyalardan foydalanish yoki huquqlardan foydalanish, tog‘-kon sanoati aksiyalaridan, ta‘sischilar aksiyalaridan yoki qarz talablari bo‘lmagan daromad kabi foydada ishtirok etishdagi boshqa huquqlardan foydalanishdan olinadigan daromadlarni, shuningdek, foydani taqsimlovchi kompaniya rezidenti bo‘lgan Ahdlashuvchi Davlatning qonunlariga muvofiq aksiyalardan olinadigan daromad kabi xuddi shunday soliq boshqaruviga taalluqli bo‘lgan boshqa huquqlardan olinadigan daromadlarni anglatadi.”.*

## **4-modda**

Konvensiyaning 26-moddasi olib tashlansin va quyidagi band bilan almashtirilsin:

### **“26-modda**

#### ***Ma‘lumot almashinuvi***

*(1) Ahdlashuvchi Davlatlarning vakolatli organlari mazkur Konvensiyaning soliqqa tortish qonun-qoidalariga zid bo‘lmagan, Ahdlashuvchi Davlatlar yoki ularning siyosiy bo‘linmalari, mahalliy hokimiyatlar tomonidan taqdim etilgan, shu bilan birgalikda Konvensiya qoidalarini tatbiq etish va har*

*qanday soliq turiga taalluqli bo'lgan qonun-qoidalarning amalga oshirish yoki ijro etish uchun foydalaniladigan bunday ma'lumotlarni o'zaro almashadilar. Almashilinadigan ma'lumotlari 1 va 2-moddalar bilan cheklanmaydi.*

*(2) 1-bandga muvofiq Ahdlashuvchi Davlat tomonidan olingan har qanday ma'lumot ushbu Davlat qonunchiligiga binoan olingan ma'lumot bilan bir xil tarzda maxfiy hisoblanadi hamda faqatgina 1-bandda qayd etilgan yoki yuqorida keltirilgan soliqlarni hisoblovchi yoki yig'uvchi, ushbu soliqlarga nisbatan shikoyatlar bo'yicha ma'lumotlarni aniqlovchi yoxud ushbu jarayonlar ustidan nazorat qilish va ularning ijrosi bilan shug'ullanuvchi shaxs yoki tashkilotlargagina (shu jumladan, sud va ma'muriy organlar ham shular jumlasidandir) oshkor qilinadi Bunday shaxslar yoki tashkilotlar ushbu ma'lumotlardan faqatgina keltirib o'tilgan maqsadlar uchun foydalanadilar. Ular bu ma'lumotlarni ommaviy sud jarayonlarida yoki sud qarorlarida oshkora qilishlari mumkin. Yuqorida keltirib o'tilganlarga qaramay, qachonki ushbu ma'lumotlardan har ikki Davlat qonunchiligiga muvofiq boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin bo'lgan bo'lsa va ma'lumotni taqdim etuvchi Davlat tomonidan ruxsat etilgan hollardagina, Ahdlashuvchi Davlatlar tomonidan olingan ma'lumotlar boshqa maqsadlar uchun ham foydalanilishi mumkin.*

*(3) Hech qanday holatda yuqoridagi bandlarda keltirilgan qoidalar Ahdlashuvchi Davlatlar zimmasiga quyidagi majburiyatlarni yuklovchi qoidalar sifatida talqin qilinmaydi:*

*a) u yoki bu Ahdlashuvchi Davlatlar qonunlari yoki ma'muriy amaliyotiga zid ma'muriy chora-tadbirlarni amalga oshirish;*

*b) u yoki bu Ahdlashuvchi Davlat qonunlariga ko'ra yoki odatiy ma'muriy amaliyotga muvofiq olinishi mumkin bo'lmagan axborotni taqdim etish;*

*c) savdo, sanoat, tadbirkorlik, tijorat yoki kasb siri yoxud savdo jarayonini oshkor qiladigan axborotni yoxud oshkor qilinishi davlat siyosatiga (jamoat tartibiga) zid keluvchi axborotni taqdim etish.*

*(4) Basharti axborot mazkur moddaga muvofiq bir Ahdlashuvchi Davlat tomonidan so'ralgan bo'lsa, boshqa Ahdlashuvchi Davlat, agar bunday axborot ushbu Ahdlashuvchi Davlatning o'z soliq maqsadlari uchun talab qilinmasa ham, talab etilgan, so'ralgan axborotni olish uchun ma'lumotlarini to'plash bo'yicha o'z chora-tadbirlaridan foydalanadi. Yuqoridagi jumlada nazarda tutilgan majburiyat 3-band qoidalariga muvofiq cheklanishi mumkin, biroq hech qanday holatda, bunday cheklovlar faqatgina ichki manfaatlar mavjud emasligi sababli axborot taqdim etishni rad qilish uchun Ahdlashuvchi Davlatga ruxsat beradigan tarzda talqin qilinmasligi lozim.*

*(5) 3-band qoidalari hech qanday holatda bunday axborot faqatgina bank, boshqa moliya tashkiloti, nominal saqlovchi yoxud agent yoki ishonchli*

*boshqaruvchi sifatida ishtirok etayotgan shaxsning ixtiyorida ekanligi yoki bunday axborot biror bir shaxsning mulkiy huquqlariga taalluqli ekanligi sababli Ahdlashuvchi Davlatga axborot taqdim qilishni rad etishga ruxsat sifatida talqin qilinmasligi lozim.”.*

## **5-modda**

Quyidagi mazmundagi yangi 26.1-modda Konvensiyaning 26-moddasidan keyin joylashtirilsin:

### **“26.1-modda**

#### **Soliqlarni yig‘ishda ko‘maklashish**

*(1) Ahdlashuvchi Davlatlar bir-birlariga soliq to‘lash talablarini bajarishda ko‘mak beradilar. Bunda yordam 1 va 2-moddalar bilan cheklanmaydi. Ahdlashuvchi Davlatlarning vakolatli organlari o‘zaro kelishuv asosida ushbu moddaning qo‘llanilish usulini belgilashlari mumkin.*

*(2) Mazkur moddada qo‘llanilgan “soliq to‘lash to‘g‘risidagi talab” Ahdlashuvchi Davlatlar yoki uning siyosiy bo‘linmalari yoki mahalliy hokimiyat organlari nomidan undiriladigan har qanday turdagi va tavsifdagi soliqlarga nisbatan, bunday soliq solish ushbu Konvensiya yoki Ahdlashuvchi Davlatlar ishtirokchi bo‘lgan har qanday boshqa hujjatga zid bo‘lmagan holda foizlar, ma‘muriy jarimalar va shu miqdorga nisbatan vaqtinchalik choralar yig‘ish yoki qo‘llash xarajatlarini o‘z ichiga olgan qarz miqdorini bildiradi.*

*(3) Basharti Ahdlashuvchi Davlat soliqlarini to‘lash to‘g‘risidagi talab mazkur Davlat qonunlariga muvofiq ijro etilishi mumkin bo‘lsa va undagi qarzdor, shu vaqt mobaynida, shu Davlat qonunlariga muvofiq, uning yig‘ilishiga to‘sqinlik qila olmasa, soliq to‘lash to‘g‘risidagi bunday talab, ushbu Davlat vakolatli organining so‘roviga binoan, boshqa Ahdlashuvchi Davlatning vakolatli organi tomonidan bajarilishi uchun qabul qilinadi. Bunday soliq to‘lash to‘g‘risidagi talab boshqa Davlat tomonidan o‘z soliqlarini yig‘ish va ularning ijrosi bo‘yicha qo‘llaniladigan o‘z qonunchiligiga muvofiq, bu soliq to‘lash to‘g‘risidagi talab boshqa davlatning soliq to‘lash talabi sifatida amalga oshiriladi.*

*(4) Basharti Ahdlashuvchi Davlat soliqlarini to‘lash to‘g‘risidagi talab bu davlatga nisbatan o‘z qonunchiligiga binoan, uni bajarish uchun vaqtinchalik choralar ko‘rishi mumkin bo‘lgan talab bo‘lsa, soliq to‘lash to‘g‘risidagi bunday talab, ushbu Davlatning vakolatli organining so‘roviga binoan, boshqa Ahdlashuvchi Davlatning vakolatli organi tomonidan vaqtinchalik choralar*

*ko'rish maqsadida qabul qilinadi. Bu boshqa davlat soliq to'lash to'g'risidagi talabga nisbatan o'z qonunchiligining qoidalariga muvofiq, soliq to'lash talabi boshqa davlatning soliq to'lash talabi sifatida, basharti bunday choralar qo'llanilganda, bu soliq talabi birinchi zikr etilgan davlatda bajarilmasa yoki undagi qarzdor uning bajarilishiga to'sqinlik qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lsa ham, vaqtinchalik choralar ko'radi.*

*(5) 3 va 4-bandlar qoidalariga daxl qilmagan holda, 3 yoki 4-bandlarning maqsadlari uchun Ahdlashuvchi Davlat tomonidan qabul qilingan soliq talabi ushbu Davlatda vaqtinchalik cheklovlarga taalluqli bo'lmaydi, shuningdek, soliq to'lash to'g'risidagi talabga ham u Davlat qonunlariga muvofiq ustuvorlik berilmaydi. Bundan tashqari, 3 yoki 4-bandlar uchun Ahdlashuvchi Davlat tomonidan qabul qilingan soliqni to'lash to'g'risidagi talab boshqa Ahdlashuvchi Davlat qonunlariga muvofiq soliq to'lash to'g'risidagi talabga nisbatan ustuvor bo'lmaydi.*

*(6) Ahdlashuvchi Davlatning soliqlarini to'lash talabining mavjudligi, haqiqiyliigi yoki miqdori boshqa Ahdlashuvchi Davlatning sudlarida yoki ma'muriy organlarida ko'rib chiqilmaydi.*

*(7) Basharti 3 yoki 4-bandlarga muvofiq, Ahdlashuvchi Davlatning so'rovidan keyin istalgan vaqtda va boshqa Ahdlashuvchi Davlat soliq to'lash to'g'risidagi talabni qanoatlantirishi va tegishli summani birinchi zikr etilgan Davlatga o'tkazishidan oldin, soliq to'lash to'g'risidagi talab quyidagi hollarda o'z kuchini yo'qotadi:*

*a) 3-bandga muvofiq so'rov yuborilgan taqdirda birinchi zikr etilgan Davlatning soliq to'lash to'g'risidagi talabi, ushbu davlat qonunchiligiga muvofiq majburiy ijroga yo'naltiriladi va bu bo'yicha qarzdor bir vaqtning o'zida, ushbu davlat qonunchiligiga binoan, uning bajarilishiga to'sqinlik qila olmaydigan shaxs hisoblanadi, yoki*

*b) 4-bandga muvofiq so'rov yuborilgan taqdirda, birinchi zikr etilgan Davlatning soliq to'lash to'g'risidagi talabi bo'yicha ushbu Davlat o'z qonunchiligiga muvofiq, uning ijrosini ta'minlash maqsadida vaqtinchalik choralar ko'radigan holda, birinchi zikr etilgan Davlatning vakolatli organlari bu fakt haqida boshqa Davlatning vakolatli organlariga zudlik bilan xabar beradi va boshqa Davlatning istagiga binoan, birinchi zikr etilgan Davlat o'z talabini to'xtatadi yoki qaytarib oladi.*

*(8) Mazkur moddaning qoidalari hech qanday holatda Ahdlashuvchi Davlatga quyidagi majburiyatlarni yuklash sifatida talqin qilinmaydi:*

*a) u yoki boshqa Ahdlashuvchi Davlat qonunlari va ma'muriy amaliyotiga zid bo'lgan ma'muriy chora-tadbirlarni amalga oshirish;*

*b) davlat siyosatiga (jamoat tartibiga) zid bo'lgan faoliyatni amalga oshirish;*

*c) basharti boshqa Ahdlashuvchi Davlat o'z qonunchiligiga yoki ma'muriy amaliyotiga muvofiq mavjud bo'lgan chora-tadbirlarni qo'llamasa, ijro etish yoki vaziyatga qarab barcha oqilona choralar ko'rmasa, yordam ko'rsatish;*

*d) ushbu Davlat uchun ma'muriy xarajatlar boshqa Ahdlashuvchi Davlat tomonidan olinadigan nomutanosib foyda aniq bo'lgan hollarda yordam berish."*

## **6-modda**

Quyidagi mazmundagi yangi 27.1-modda Konvensiyaning 27-moddasidan keyin joylashtirilsin:

### ***"27.1-modda Imtiyozlarga ega bo'lish huquqi***

*Mazkur Konvensiyaning boshqa qoidalariga daxl qilmagan holda, basharti ushbu imtiyozni olish bevosita yoki bilvosita amalga oshirilgan har qanday kelishuv yoki bitimning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan degan xulosaga kelinsa, ushbu Konvensiyaga muvofiq, bu imtiyoz daromad yoki mulk predmetiga nisbatan qo'llanilmaydi, agar bunday vaziyatlarda bu imtiyozni qo'llash ushbu Konvensiyaning tegishli qoidalariga muvofiq yoki mos kelishi aniqlanmasa"*

## 7-modda

(1) Mazkur Bayonnoma ratifikatsiya qilinadi hamda ratifikatsiya yorliqlari imkon qadar qisqa muddatlarda almashiniladi.

(2) Bayonnoma ratifikatsiya yorliqlari almashinilgandan keyingi uchinchi oyning birinchi kunidan boshlab kuchga kiradi hamda uning qoidalari ratifikatsiya yorliqlari almashingan taqvimiy yilning 31-dekabridan keyin boshlanadigan har qanday moliya yilidagi soliqlarga nisbatan amal qiladi.

(3) Mazkur Bayonnoma Konvensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi va Konvensiyaning amal qilishi muddati tugagan sanadan o‘z kuchini yo‘qotadi.

Tegishli tartibda vakolatlangan quyida imzo chekuvchilar shunga guvohlik berib, mazkur Bayonnomani imzoladilar.

Toshkent shahrida, 2026-yil 7-may kuni, ikki asl nusxada, nemis, o‘zbek va ingliz tillarida tuzildi, bunda har bir matn teng autentik hisoblanadi. Talqin qilishda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

**Avstriya Respublikasi  
nomidan**

Beate Meinl-Reisinger

**O‘zbekiston Respublikasi  
nomidan**

Baxtiyor Saidov

## QO‘SHIMCHA BAYONNOMA

Avstriya Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida 2000-yilning 14-iyun kuni Toshkent shahrida imzolangan ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish hamda daromad va mol-mulk soliqlarini to‘lashdan bosh tortishni bartaraf qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Bayonnomani imzolash paytida, quyida imzo chekuvchi shaxslar quyidagi qoidalar Bayonnomaning ajralmas qismi bo‘lishiga kelishib oldilar:

### (1) 26-moddaga qo‘shimcha havola

i) So‘rov yuboruvchi Davlatning vakolatli organi, Konvensiyaga muvofiq axborot so‘ralganda axborotning so‘rovga tegishliligini namoyish etish uchun, so‘ralayotgan Davlat vakolatli organiga quyidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi:

a) tekshirilayotgan yoki tergov qilinayotgan shaxsni identifikatsiyalovchi ma‘lumotlar;

b) so‘ralayotgan axborotning mohiyati va So‘rov yuboruvchi Davlatning istagiga ko‘ra so‘ralayotgan Davlatdan ma‘lumotni qay tarzda qabul qilish shakli to‘g‘risida bayonoti;

c) so‘raladigan ma‘lumot uchun soliq maqsadi;

d) so‘ralgan ma‘lumot so‘ralayotgan Davlatga yoki ushbu Davlatning yurisdiksiyasida bo‘lgan shaxsga tegishli yoki uning nazorati ostida ekanligi bo‘yicha asoslar;

e) imkon qadar so‘ralgan ma‘lumotlarga ega bo‘lgan har qanday shaxsning ismi va manzili;

f) So‘rov yuboruvchi Davlat ma‘lumot olish uchun o‘z hududida mavjud bo‘lgan barcha vositalarni ishga solganligi haqidagi ma‘lumot, nomutanosib qiyinchilik keltirib chiqargan holatlar bundan mustasno.

ii) 26-moddada nazarda tutilgan ma‘lumotlar almashinuvi “nomaqsadli qidiruvlar”ni (*“fishing expeditions”*) tashkil qiluvchi choralarni o‘z ichiga olmaydi deb tushuniladi.

### (2) Konvensiyani sharhlash

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (keyingi o‘rinlarda “OECD”) daromad va kapital to‘g‘risidagi namunaviy Konvensiyasining (keyingi

o‘rinlarda “namunaviy Konvensiya”) tegishli qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan ushbu Konvensiyaning qoidalari ham, umumiy ravishda, OECD sharhida ta’kidlangan kabi ma’noga ega deb tushuniladi. Oldingi jumladagi tushuncha quyidagilarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

- a) har ikkala Ahdlashuvchi Davlatlar tomonidan OECD namunaviy Konvensiyasiga yoki uning sharhiga har qanday izohlar yoki mulohazalar;
- b) ushbu Bayonnoma bo‘yicha har qanday zid talqinlar;
- c) Konvensiya kuchga kirgandan keyingi vakolatli organlar tomonidan ma’qullangan har qanday qarama-qarshi izohlar.

OECDning sharhi, vaqti-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lsa ham, 1969-yil 23-maydagi “Shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi Vena Konvensiyasi doirasida sharhlash vositasi hisoblanadi.

Tegishli tartibda vakolatlangan quyida imzo chekuvchilar shunga guvohlik berib, mazkur Qo‘shimcha Bayonnomani imzoladilar.

Toshkent shahrida, 2026-yil 7-may kuni, ikki asl nusxada, nemis, o‘zbek va ingliz tillarida tuzildi, bunda har bir matn teng autentik hisoblanadi. Talqin qilishda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

**Avstriya Respublikasi  
nomidan**

Beate Meinel-Reisinger

**O‘zbekiston Respublikasi  
nomidan**

Baxtiyor Saidov